



# Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar—may

## RAQAMLAR:


- 2018 yil yanvar-may oylarida bozor xizmatlari hajmi 17451,7 mlrd.so'mni tashkil etdi.
- Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 131,3 % ni tashkil etdi.
- Toshkent shahrida xizmatlar sohasining o'sish sur'ati 112,5 % ga yetdi.

Zamonaviy dunyoda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning eng istiqbolli va jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ko'rsatilayotgan bozor xizmatlari turlarining ro'yxati juda xilma-xildir.

Respublikada amalga oshiralayotgan iqtisodiy islohotlar xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish imkonini bermoqda. Natijada, 2018 yil yanvar—may oylarida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi 17 451,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Bozor xizmatlarining salmoqli hajmi savdo xizmatlari, moliyaviy xizmatlar, transport xizmatlari, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari, ta'lim sohasidagi xizmatlarda kuzatilmoqda.

## 2018 yil yanvar-may oylarida ko'rsatilgan




## 2018 yil yanvar—may oylarida Toshkent shahrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarining ishlab chiqarish hajmi

	Xajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %da
Xizmatlar (jami)	17 451,7	112,5
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	1 817,8	120,5
Moliyaviy xizmatlar	4 196,0	131,3
Transport xizmatlari	2 146,0	113,4
<i>shu jumladan: avtotransport xizmati</i>	1 334,5	101,2
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	681,9	106,2
Savdo xizmatlari	4 917,0	100,8
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	767,7	102,9
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	702,8	103,1
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	312,6	115,5
Ijara xizmatlari	331,9	102,7
Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	83,9	102,2
Shaxsiy xizmatlar	228,9	100,3
Me'morchilik sohasidagi xizmatlar	438,3	133,8
Boshqa xizmatlar	826,9	108,3

2018 yil yanvar—may oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar (131,3 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (133,8 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (120,5 %), transport xizmatlari (113,4 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (115,5 %) kabi xizmatlarning o'sish sur'atlari yuqori sur'atlarda oshdi.

### 2018 yil yanvar—may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, % da




Valyuta siyosatini erkinlashtirish, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlash ko'lamini kengaytirish, shuningdek, moliyaviy tashkilotlar tomonidan innovatsion xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar moliyaviy xizmatlar hajmini oshishiga ta'sir ko'rsatdi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida yuqori texnologik xizmatlarning yanada rivojlanishi, xizmatlarning yangi turlarini kengaytirilishi, shuningdek, ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifatini yaxshilanishi aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining o'sishiga ta'sir ko'rsatdi.

2018 yil yanvar—may oylarida transport xizmatlari hajmini oshishiga ta'sir qilgan omillaridan biri yo'lovchi va yuklarni tashish xizmatlariga bo'lgan talabning oshishi hisoblanadi.

Transport xizmatlari umumiy hajmida eng katta ulushni avtomobil transporti orqali ko'rsatilgan xizmatlar (62,2 %) egallaydi. Bu uning harakatchanligi, yuklarni (yo'lovchilarni) yo'lda boshqa transportga qo'shimcha yuklamasdan (o'tkazmasdan) "eshikdan eshikgacha" etkazib berishda qulayligi, transport vositasini harakatlantirishda mustaqilligi bilan izohlanadi.

### 2018 yil yanvar—may oylarida xizmatlar ishlab chiqarish tarkibi, % da



Xizmatlar tarkibida eng katta ulush—savdo xizmatlari (28,2 %); moliyaviy xizmatlar (24,0 %); transport xizmatlari (12,3 %); aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (10,4 %); ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (4,4 %); ta'lim sohasidagi xizmatlar (4,0 %) tashkil etadi.

Toshkent shahar

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

Mas'ul: Aleshunina O.V.

(71) 230-88-15